

ERTAPISHAR SOYA (GLYCINE) O'SIMLIGINING O'SIB RIVOJLANISHI.

Xushvaqtov Yunus

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11496845>

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasining hamma ishlab-chiqarish korxonalarida soya doniga talab yanada ortib bormoqda. Soya ekiniga keyingi yillarda ham asosiy, ham takroriy ekin sifatida alohida ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, takroriy ekin sifatida bir dala maydonidan ikki marta hosil etishtirish hamda bir dala maydonidan ikki marta daromad olish insonlarni ham moddiy tomonidan qiziqtirilmoqda. Ushbu maqolada ertapishar soya o'simligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Dukkakli don ekinlari, soya o'simligi, glycine, pnevmatik seyalka, aminokislotalar.

GROWTH DEVELOPMENT OF MORNING SOY (GLYCINE) PLANT.

Abstract. The demand for soy grains is increasing in all production enterprises of the Republic of Uzbekistan. Soybean crop is given special importance in the following years as both main and repeated crop. In particular, as a repeated crop, people are interested in producing twice the yield from the same field area and getting twice the income from the same field area. This article provides information about the early soybean plant.

Key words: Legumes, soybean, glycine, pneumatic seeder, amino acids.

РАЗВИТИЕ РОСТА РАСТЕНИЯ УТРЕННЕЙ СОИ (ГЛИЦИНА).

Аннотация. Спрос на соевое зерно увеличивается на всех производственных предприятиях Республики Узбекистан. Особое значение в последующие годы придается урожаю сои как основной, так и повторной культуры. В частности, в качестве повторного урожая люди заинтересованы в получении вдвое большего урожая с той же площади поля и получения удвоенного дохода с той же площади поля. В этой статье представлена информация о раннем растении сои.

Ключевые слова: Бобовые культуры, соя, глицин, пневматическая сейлка, аминокислоты.

Kirish. Bugungi kun hisob kitoblari natijasiga ko'ra deyarli butun dunyo miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sohaning o'rni va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Respublikamizdagi dehqonchilik madaniyatini rivojlanтирishda fan texnika

yutuqlari va ilg‘or tajribasini ishlab chiqarishga keng joriy qilish evaziga ekinlarning hosildorligini oshirish, uning sifatini yaxshilash, hamda don mustaqilligini ta’minalash ustida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublika aholisini oziq-ovqat, birinchi navbatda don mahsulotlari bilan to‘la ta’minalash vazifasini bajarish muhim ahamiyatga molik vazifa hisoblanadi. Mamlakatimizda soya moyli ekinlar maydonlarining kengaytirilishi va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlarning ko‘payishi aholining yog‘-moy mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirish hamda bu o’simlikning tashqi muhit bilan aloqalarini ertapishar navlarni hosildorligini turlarini tuproqni ekologik tasirlarni boholash undan tashqari chorvachilikni izchil rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda qishloq xo‘jaligidagi o’simlik oqsilini ishlab chiqish va ta’minalash eng katta muammolardan hisoblanadi. Bu muammoni yechishda dukkakli don ekinlaridan soya o’simligining ahamiyati kattadir. Soya o’simligi dukkakli-don ekinlari oilasiga mansub, bir yillik o’simlik, vatani Markaziy Osiyo hisoblanadi. Soya oziq-ovqat, yem tayyorlashda va tuproq unumdorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Soya doni tarkibida 38-52 % oqsil, 22-25 % yog‘, yog‘ tarkibida turli vitaminlar, poxolida esa 4-5% oqsil va 5 % gacha yog‘ bo‘ladi. Soya donida oqsilni ko‘pligi jihatidan bug‘doy donidan 2,5, makkajo‘xori donidan esa 3,5 barobar yuqori turadi va soya donining oqsili tarkibida 10 dan ortiq aminokislotalar mavjud. Ko‘k massasi esa chorva mollariga oziq bo‘ladi. Soya ildizlarida barcha dukkakli o’simliklarning ildizlaridagi kabi havodagi azotdan foydalana oladigan tuganaklar rivojlanadi. Soya o’simligi ildizidagi rizobiol bakteriyalar hosil qilgan tuganaklar tufayli har gektarda 150-250 kilogrammgacha sof azot to‘playdi. Soya yorug‘lik, issiqlik va namlikni sevadigan juda qadimiy ekin hisoblanadi.

Soya tibbiyotda o‘ta foydali, chorvachilikda hosildorlikni oshirishda samarali va qishloq xo‘jaligidagi hamkor ekin sifatida yetishtirish uchun qulay bo‘lgan o’simlikdir. Soya o’simligi va undan olinadigan mahsulotlar oshqozon, me’da-ichak tizimi kasalliklarida foydali hisoblanadi.

Shuningdek, soya qandli diabet kasalligini davolashda ham samaralidir.

Soya o’suv davri davomida unib chiqish birinchi uchtalik barg hosil qilish shoxlanish gullash g’unchalash dukaklash va pishish bosqichlarni o’taydi.

Unib chiqish: soya urug‘i tuproqga ekilgach o‘z vazniga nisbatan 90-150 % gacha suvlarni shimib olingandan keyin urug‘ bo‘rta boshlaydi murtak ildizlari ko‘rinishi bilan undan ildiz tukchalari hosil bo‘ladi

Soya bu (glycine) bu o’simlikning turli xildagi navlari mavjud bo‘lib shu qatorda ularni 3-ta qisimga ajratamiz.

1- Ertapishar navi

2- O'rtapishar navi

3- Kech pishar nav (larga) bo'linadi

Soyaning ertapishar navlari $1200-1500^{\circ}\text{C}$, o'rtapishar navlari esa $1800 - 2100^{\circ}\text{C}$ talab qiladi. Soyani asosiy ekin sifatida ekishda uning navlarini to'g'ri tanlay bilish lozimdir.

Ertapishar navlarni o'suv davri 70-75 kun bo'lsa, o'rtapishar navlar 100 -110 kun va kechpishar navlari esa 135-140 kunda pishib yetiladi. Qaysi muddatda ekilishiga qarab navlar tanlanadi. Kechpishar navlarni takroriy ekib bo'lmaydi, ular takroriy ekilganda pishib yetilmaydi.

Bu hollarda ularni silos yoki ko'k poya sifatida o'rib mollarga berish mumkin bo'ladi. Soya navlari ekish me'yori gektariga 60-70 kg bo'lib, qator oralari 70 sm. kenglikda ekilishi maqsadga muvofiqdir. Qator orasi 90 sm. bo'lganda tup soni kamayishi evaziga hosildorlik kamayib ketadi.

Ekish pnevmatik seyalkalarda amalga oshirilib, urug'lar tuproqning tarkibiga qarab 4-6 sm. chuqurlikka tashlanadi va urug' suvi beriladi.

Soya o'simligi unchalik suv talab qilmaydi unib chiqish jarayoni ham ertapishar navida juda tez orada yerdan unib chiqadi. Soyani ekish paytida undagi truproq sharoitini ham hisobga olinadi, agar tuproq eroziyaga uchragan yer yoki tuproqga tashqi ekalogik ta'sirlar oqibati sezilsa unday joylarga ekilmaydi, sababi soyani unib chiqishi hamda uning o'sish rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatib uning rivojlanishini to'xtatib qo'yishi mumkin. Shuning uchun soyani ekishda ekiladigan hududning populyatsiyasini yaxshilab o'rganib chiqish maqsadga muofiq bo'ladi. Agar yer unumdorligi talabga javob bersa vegetatsiya davri ham tez va samarali bo'ladi.



Ertapishar soya o'simligining vegetatsiya davri

Xulosa qilib aytganda, Ertapishar soya navlarning osishi, rivojlanishi hamda uning hosildorligi tuproq unumdorligiga bogliq. Tuproq unumdorligi yaxshilansa soya o'simligining ham o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi oshadi, bu esa inson faoliyati uchun hizmat qiladi.

REFERENCES

1. Yormatova D. Uzbekistonda soya yetishtirish - Toshkent: Uzbekiston, 1983y B. 20-40.
2. Yo'ldoshev H.S. "O'simlik mahsulotlari yetishtirish texnologiyasi" "Mehnat", 2001y.
3. Корягин Ю.Г. Соя-Алма-Ата, Кайнар, 1998г С. 36-56.
4. Panjiev A., Ubaydullaev SH., Erkaev N. "Soya", Qarshi, 2006 y.